

O'z mamlakati bilan faxrlanadigan inson ko'p  
narsalarga qodir bo'ladi

I.KARIMOV

*Vatan yagonadir, Vatan bittadir!*

*Tong*

**YULDUZI**

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2008-yil  
1-sentabr  
N:35  
(66680)

*Biz istiqlol farzandlarimiz*

Mustaqilligimizga

17  
YIL

32 - M A K T A B

*Assalom,  
qadrdon  
maktab!*





Vatan nima o'zi?

Kindik qoni to'kilgan ona tuproq, muqaddas zaminmi?!

Vatan nima o'zi?

Hali dunyoning ko'pgina mamlakatlari xalqlari qo'nim bilmagan, Vatan nimaligini dildan his qilmagan paytlarda o'zining Xazorasp, Tuproqqal'a, Ayoqqal'a, Qirqqiz qal'a, Qo'yqirilgan qal'a singari qadimiy qal'alarini bunyod etgan zamini boy, eng ko'hna xalqmi?!

Vatan nima o'zi?

Hali ota yurt nimaligini dildan his qilmay, ona mehri qona-qona yashashga intilib, og'ushida yotgan mo'jazzigina beshikmi?!

Vatan nima o'zi?

Sarhadlari salkam 6300 kilometrni, aholisi 26 mln. kishini tashkil etadigan, Markaziy Osiyoning kelajagi porloq, shiddatli rivojlanayotgan davlatimi?!

Vatan nima o'zi?

Osmono'par Tyan-Shan, Chotqol, Oloy, Qurama, Hisor tog'larimi?!

Vatan nima o'zi?

Hali ham asovligini yo'qotmagan Amudaryomi, sohillari borib ko'llarga aylangan Sirdaryomi yoki o'z mavqeini asrab qololmagan Orol dengizimi?!

Vatan nima o'zi?

Cheksiz barxanlar uzra yastanib yotgan Qoraqum va Qizilqummi yoki qo'ynida biz ham bilmagan boyliklarni asrab qo'ygan Ust-Yurt cho'llarimi?!

Vatan nima o'zi?

Tarixi boy, madaniy ildizi baquvvat, olamga Beruniy, Ulug'bek, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Zamaxshariy singari yetuk olimlarni, Imom Al-Buxoriy, at-Termizi, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Shayx Najmiddin Kubro singari muqaddas islom dinimizning mashhur allomalarini yetishtirib bergan buyuk xalqning yurtimi?!

Vatan nima o'zi?

Dunyoga dong'i ketgan Samarqandmi, Buxoro yoki Xivami?!

Vatan nima o'zi?

Turon zaminni dunyoga mashhur qilgan, o'zining qo'l ostida ulkan davlat barpo etib, Yevropaga tan oldirgan, harbiy tizimlari bilan jahonda nom qozongan buyuk sarkarda Amir Temur, mo'g'ullarga qaqshatqich zarbalari bilan hech tutqich bermagan Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdimi?!


Vatan nima o'zi?

Mustaqilligini butun dunyoga tan

oldirib, o'z yurtboshisi rahnamoligida turli millatli ahil oilada O'zbekiston davlati qudratini oshirib, oltin, mis kabi boyliklarini toshirib, har tomonlama rivojlantirayotgan mamlakatmi?!

Vatan nima o'zi?

Zamonaviy «Il – 76 TD – 90 VD», «Il – 114 LL» samolyotlar, «Matiz», «Lasetti», «Neksiya», «Isuzi»,



«Damas»day avtomashinalar ishlab chiqarilayotgan, million-million tonna paxta, ipak, don yetishtirib dunyoda o'z o'rnini mustahkamlayotgan qudratli respublikami?!

Vatan nima o'zi?

Sharqning eng ko'rkam shaharlaridan

biri bo'lmish poytaxt Toshkentning osmono'par zamonaviy binolari, Amir Temur haykali, ko'priklar, Milliy bog', Mustaqillik maydoni va sanog'iga yetolmaydigan bunyodkorlik ishlarimi?!


Vatan nima o'zi?

O'zbekiston shuhratini dunyoga taratayotgan mashhur sportchilar – Ruslan Chagayev, Rustam Qosimjonov,

Abdulla Tangriyev, Artur Grigoryan, Iroda To'laganova va boshqa o'nlab futbolchilarmi?!

Vatan nima o'zi?

Amudaryo uzra qurilgan ulkan ko'priklar, to'qimachilik korxonalarini, Qamchiq dovoni uzra barpo etilgan



Xabaringiz bo'lsa, Xitoy poytaxti Pekin shahrida 24-avgust kuni XXIX yozgi Olimpiada bahslari o'z nihoyasiga yetdi.

Bahslarda 58 nafar sport ustalari yurtimiz sharafini munosib himoya qilishdi. Terma jamoamiz vakillari jami 6 ta, 1 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medali bilan taqdirlanib, yurtimizga yorug'yuz bilan qaytishdi.

Olimpiada o'yinlarida 205 davlat orasidan 87 mamlakat sportchilari o'z yurtlariga medal bilan qaytishdi. Ular orasida mamlakatimizning ham borligi biz uchun faxrlidir.

Umumiy hisob-kitoblarga ko'ra, xitoylik sportchilar o'z yurtlarida kechgan bahslarda eng ko'p oltin medal olib yakka karvonboshi bo'lishdi. Jami 100 ta medal. Shundan 51 ta oltin, 21 ta kumush va 28 ta bronza. AQSHlik sportchilar 110 ta medal olgan bo'lsa-da, oltin medallari soni 36 tani tashkil qilgani bois ikkinchi o'rin bilan kifoyalandi. Rossiyaliklar esa 72 ta medal bilan uchinchi o'rindan joy olishdi.

Eslatib o'tamiz, XXX yozgi Olimpiada o'yinlariga 2012-yili Angliya poytaxti London shahri mezbonlik qiladi.


Muxbirimiz

## ARTUR TAYMAZOV – JAHONNING YENGILMAS POLVONI!

26-avgust. Poytaxt aeroporti.

«Pekin – 2008» Olimpiada o'yinlarida qatnashib g'olib bo'lgan Artur Taymazov, Abdulla Tangriyev, Soslan Tigiyev, Anton Fokin, Yekaterina Xilko, Rishod Sobirov va boshqa sportchilarimiz yurtimizga qaytdilar.

Yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarib kelayotgan Artur Taymazov ko'ringanida, muxlislar qurshovida qolgan polvonimizni suhbatga tortdik:



– Artur, g'alaba muborak!

– Rahmat!

– G'alabaga erishganda, xayolingizga nimalar keldi?

– Avvalambor, menga ishonib, olqishlab turgan muxlislarim ishonchini oqlay olganimdan ko'nglim tog'dek ko'tarildi. Qolaversa, Mustaqillik bayramining 17 yilligiga munosib sovg'a qo'sha olganimdan quvondim.

– Keyingi Olimpiadada ham ishtirok etasizmi?

– Albatta, mening yagona orzuim ham shu. Keyingi Olimpiada o'yinlarida qatnashib g'olib bo'lsam, uch karra Olimpiya chempioni degan unvonga sazovor bo'laman. Bu, menimcha, har bir sportchining eng oliy orzusi bo'lsa kerak.

– Gazetamizning ko'p minglik mushtariylari bo'lmish bolalar va o'smirlar nomidan biz ham hamisha zafarlar yor bo'lishini tilab qolamiz.

Flora FAXRUTDIN,  
Yusuf ABDULLAYEV

## SO'Z BERISHDI



Hamza tumanidagi 307-o'rta umumta'lim maktabi va S.Rahimov tumanidagi 28-maktablarda voyaga yetmagan yoshlar uchun seminar-trening mashg'ulotlari o'tkazildi.

Hamza va S.Rahimov tumanlari hokimligi, Xalq ta'limi bo'limi, IIB va «Kamolot» YOIH tomonidan tashkillashtirilgan tadbirga tuman ichki ishlar idoralarida profilaktik hisobda turuvchi voyaga yetmagan yoshlar jalb qilindi.

Tuman hokimlari tomonidan ochiq deb e'lon qilingan tadbir, qiziqarli davra suhbatlari, uchrashuvlar bilan davom etdi. Shundan so'ng bolalar guruhlariga bo'linib, seminar-trening mashg'ulotlarini boshlashdi. Yoshlar o'zlari qiziqqan sohalarga qarab, guruhlariga bo'linib, qiziqarli savol-javoblar, bahs-munozaralarga tezda kirishib ketdilar. El tanigan sportchilar va san'atkorlar bilan bo'lib o'tgan davra suhbatlari va ular ijrosidagi ko'rgazmali chiqishlar, kuy-qo'shiqlar ham bolalarda qiziqish uyg'otdi. Kun davomida yoshlar sport musobaqalarida bellashib, bir-birlari bilan do'stlashdilar. Tadbir tashkilotchilari tomonidan bellashuvlarda faol qatnashgan bolalar qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanishdi.

Tadbir yakunida Toshkent hayvonot bog'i va «Toshkent-Lend» ko'ngilochar bog'iga uyushtirilgan sayohat bolalar uchun bir umr esdan chiqmas lahzalarga aylandi. Tadbir ishtirokchilari – yoshlar boshlanayotgan o'quv yilida a'lo baholarga o'qishga so'z berishdi.

Sherali NAMOZOV



magistral yo'l, Dehqonobod – Boysun, Navoiy – Uchquduq – Nukus temiryo'llari, viloyatlar markazlaridagi zamonaviy o'yingoh va sport komplekslar, litsey va kollejlarmi?!

Vatan nima o'zi?

Taraqqiyot yo'lidagi qiyinchiliklardan cho'chimay, sabr ila oldinga qarab intilayotgan, o'zi to'y masa ham bag'rini

allaqanday bir hissiyot qamrab oladigan shunday qiyosi yo'q o'lka. Onaday muqaddas go'sha.

Vatan nima o'zi?

Buni endi mendan so'rama, Vatansiz qolganlardan so'ra. Dardini ichiga yutib, yurtini sog'inib fig'on chekkan, hatto shoh bo'lib, Vatansiz faryod qilgan Bobur Mirzo, minglab boshqa vatandoshlar va

Armonim qolmasdi yurt tuprog'iga, Sog'inch yuzlarimni lahza bosolsam. Vatan nima o'zi?

Ha, darhaqiqat, Vatan bu eng muqaddas maskan, tili, xalqi, ramzlari, tabiati, boyligi bilan mujassam bo'lgan el. Bu mening o'zim, qalbim va yuragim. Bejiz aytishmagan: «Vatanni sevmoq iymondandir». Shu yurtsiz men ham, siz ham hech kimmiz.


Mustaqillik ayyomi arafasida bizni unib-o'stirayotgan, quvonchimizni ham, tashvishimizni ham o'ziga sherik qilayotgan ulug' avlodlar yurti – shu Vatan uchun, shu ona zamin uchun bosh egib ta'zim qilaylik.

E'zozli shoirimiz qalamga olganidek:

*Kel, azizim, yonimga,  
yulduzmisan, oymisan,  
O'zbekimsan hamisha,  
yupunmisan, boymisan,  
Vatandoshim, shu tengsiz  
Vatanni kuylashaylik,  
Zamon keldi, bizlar ham  
dunyoga bo'ylashaylik.  
O'zbekiston – yagona Vatan  
uchun yashaylik,  
Vatan ichra bu go'zal chaman  
uchun yasha ylik.*

Jabbor RAZZOQOV

O'quvchilarga bayram sovg'asi




## JURNALLARNING YANGI SONLARIDA

Bayramning bayramligi albatta sovg'a bilan. Mustaqilligimizning 17 yilligi keng tantana qilinayotgan ayni kunlarda «Gulxan» hamda «G'uncha» o'quvchilari sovg'aning eng yaxshisini oladigan bo'lishdi. Birinchi qo'ng'iroq ovozini orziqib kutayotgan birinchi marta 1-sinfga borishga otlangan bolalarni kim qo'ldan ushlab, «Bilimlar qasri»ga olib kirishini bilasizmi? Bilmasangiz, bilib oling. Bolajonlarning sevimli do'sti «G' -U- N- CH- A- O Y». Qanday qilib, deysizmi? Bu judayam oson. Bayram arafasida mamlakati-mizdagi har bir xonadonga yangilangan va mazmunan yaxshilangan «G'uncha» jurnali gul-gul ochilib, quvonib kirib bordi. Jurnal sahifalarida Mustaqilligimiz haqidagi esse, iste'dodli kichkintoylar haqidagi lavhalar, bilimni oshiruvchi boshqotirmalar, q-i-z-i-q ertak va hikoyalar joy olgan. Yosh yozuvchi Muazzam Ibrohimovanning «G'unchaoy va Chirmovuq» nomli jurnal ichidagi kitobchasi, eh-he, o'zi bir olam sovg'a. Jurnalni o'qib savodi ham, bilimi ham oshgan bolajonlarning Mustaqillik darsida ustozlari savollariga burro-burro javob berib, olqish olishi ap-aniq.

Yana bir gap: «G'uncha» endi doim shunday chiroyli va yana-da mazmunli bo'lib boraveradi. «G'uncha»ning akasi «Gulxan» ham bayramda o'zgacha mazmun va qiyofada aks etgan. «Gulxan»ni varaqlagan sari bilimingiz o-sh-i-i-b, aqlingiz shoshib qolishi shubhasiz.

Bayram arafasida ko'p gapirib, maqtozni oshirvormaylik. Qolganini jurnallarni o'qigach, o'zingiz bilib olasiz.



mehmonga ochayotgan, jo'jabirday bir etak bolalarini avaylab o'stirib, dunyoga mashhur qila olayotgan quyoshli yurtmi?!

Vatan nima o'zi?

Ta'riflashga so'z ojizlik qiladigan, nomini tilga olganingda, butun vujudingni

ularning avlodlaridan so'ra.

*Yaproq sarg'aymadi, yuzim sarg'aydi,  
Chirt uzilgan – bargmas, mening yuragim.  
Kuzning sokin kuyi misoli daydi,  
O'q yegan turnadir orzu tilagim.  
Shikasta umrimning xasta dog'iga,  
Mumiyo singari malham qo'yolsam,*

### ISTIQLOLIM

*Istiqlolim – hurligim,  
Ajodlarim orzusi.  
Bizga nasib qilibdi,  
Charaqlagan yog'dusi.  
Madhiyang-la tong otar,  
Go'yo navo taralar.  
Uning o'tli satri-la,  
Qalbdagi g'urur yaralar.  
Istiqlolim buyugim,  
Insonlarga suyugim.  
Asrlar osha yasha,  
Ko'z tegmasin zarracha.*

Zamira RAHMATILLAYEVA,  
Hamza tumanidagi  
235-maktabning  
7-«V» sinf o'quvchisi



### MAHALLAMIZ – ISLOMOBOD

Mahallamiz – Islomobod,  
Ko'chalari ko'rkam, obod.  
Mehribondir odamlari,  
Doim qutlug' qadamlari.

Vatan ichra mo'jaz vatan,  
Unga fido bo'lsin jon-tan.  
U tinch – biz tinch yashaymiz,

Quchog'ida yashnaymiz.  
Shunday ekan, Vatanni biz,  
Katta-kichik, o'g'il-u qiz.  
Doim obod qilaylik,  
Yurt qadri bilaylik.


Gulira'no MUSAYEVA,  
poytaxtdagi 186-maktabning  
7-«V» sinf o'quvchisi

Abdurahmon AKBAR

### MEHRIDARYO

E'zozlanding qadimdan  
Toshqal'a, Toshminor deb.  
Ravon yo'l, baland uylar  
Bugun senga husn, zeb.  
Metromiz har bekati  
Bamisoli bir qasr.  
Me'mori – ona xalqim  
Bu yerda yo'q hech bir sir.  
Bag'ri paxtadek yumshoq  
Mehridaryo Toshkentsan,  
Vatanimiz yuragi –  
Sehri dunyo Toshkentsan.

### OQ SAROY



*Ona xalqim -durdonasi,  
Tariximning afsonasi.  
Jahonning bir shonasi,  
Temurning koshonasi.*

*Oq saroy – oltin saroy,  
Ko'p yillik tarixga boy.  
U bilan so'zlashar oy,  
Udir yurtingga chiroy.*

*Yurtimning savlatini,  
Temurning shavkatini,  
Avlodlarga yetkazar,  
Dunyo turguncha yashar.*

Dildora IBRAGIMOVA,  
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi  
akademik litsey talabasi



Toshkentning 2200 yilligiga





## QUVONCHIMSIZ, QUVNOQ BOLALAR

Men mustaqillikkacha bo'lgan davrlarda, ya'ni sho'rolar zamonida yosh ijodkor sifatida talay anjumanlarda ishtirok etganman. Bu anjumanlar yurakka har qancha hayajon bermasin, o'qitiradigan o'rinlari ko'p bo'lardi. Bu o'kinch shunda ediki, boshqa millat vakillari bo'lgan yosh ijodkorlar iste'dodlarini yorqin namoyish etishsa ham, sanoqda hamisha markazdan kelganlardan keyin tilga olinardi. O'shanda biz kamsitilganmiz, yurtning hurligini dildan orzu qilganmiz.

Yaratganga beadad shukrlar bo'lsinki, biz bugun ozod va obod yurtda yashayapmiz. Endi yurtning shoir-u yozuvchilari, olim-u san'atkorlari katta sahnalarga chiqqanda hech qachon yelka qisib turmaydilar. O'z iste'dodlarini boshqalarnikidan kam bilmaydilar.

Mening ichki quvonchim shundaki, millatimiz farzandlari bizda kechgan o'kinchlarni bilmay o'smoqdalar va hech qachon bilmaydilar ham.

Men ularga quvonchimsiz, quvnoq bolalar, degim keladi.

Mirpo'lat MIRZO, shoir



Ota-onangiz sizning yaxshi o'qishingiz uchun barcha o'quv qurollarini olib berishadi, to'g'rimi? Bittagina ruchka-qalam soladigan «pinal»ingizning zo'ri olti ming so'm tursa, maktab bozori necha pulga tushishini hisoblab ko'rgandirsiz?! Shunday ekan, ulardan unumli foydalaning va ehtiyotlang! Ha, aytgancha, oyoq kiyimingizni ham tayyorlab qo'ydingizmi? Axir ularni ham har kuni kechqurun artib qo'yish kerak. Shunda siz eng a'lochi va namunali o'quvchi bo'lasiz. Va faqat «barakalla» degan olqishni olasiz. Men o'quvchiligimda bu so'zni dadamlardan eshitishni yaxshi ko'rardim. Aslida, menda o'quvchiga xos yaxshi odatlarni shakllantirgan, doim tartib-intizomga chaqirgan ham ota-onamdir. Tengdoshlaringizdan Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi 16-maktabning 4-«B» sinf o'quvchisi Javlonbek Siddiqov yuqorida biz aytgan tartib-intizomga rioya qilar ekan. U yangi papkasiga bir-biridan chiroyli kitoblarini sola



Darslar boshlangach esa dars jadvalini chiroyli qilib yozib, stolingizga qo'yib qo'ying. Va har kuni kechqurun ertangi darslarning kitob-daftarlarini joylab, sumkangizni hozirlang. Kitob-daftarini ertalab tayyorlaydigan bolalar ko'pincha



maktabga ham kechga qolishadi. Afsuski, darslarda ham faol ishtirok etish o'rniga, kitobim qolib ketibdi, deb o'qituvchilariga bahona qilishadi.

## PORTFELINGIZ TAYYORMI?

*Ertalab maktabga shoshib goh ruchkasini, goh daftarini qidirayotgan o'quvchini ko'z oldingizga keltiring... U o'zining tartibsizligidan o'zi asabiylashadi. Balki siz ham shunday qilarsiz va hozir bu yomon odatingizdan uyalayotgandirsiz? Lekin tartib-intizomli bo'lishga harakat qilish mumkin. Keling, yangi o'quv yilining birinchi kunidayoq portfelingizni tayyorlab qo'yamiz. Unga nimalarni solish lozimligini bilsangiz kerak?!*

turib, shunday deydi:

– Men hecham oyimlarga erkalik qilmayman. Maktab formamni, portfelimni har kuni kechqurun darslarimni bajarib bo'lgach tayyorlab qo'yaman. O'qituvchimiz E'zoza opa Sodiqova portfelimizda ikkitadan ruchka bo'lishi kerakligini tayinlaydilar. Ayniqsa, mehnat darsi, jismoniy tarbiya darslariga kerakli anjomlarimni bir kun oldin puxta qilib tayyorlab qo'yaman. Oyimlar xursand bo'lgancha «O'zimning dastyor o'g'lim», deb erkalaydilar.

Ko'rdingizmi, bolalar, tartibli, saranjom-sarishta bo'lish qanday yaxshi! O'quv yilining boshidayoq o'zingizga va'da bering: siz bu yil albatta eng a'lochi, o'quv qurollari doimo tayyor bo'lgan intizomli o'quvchi bo'lasiz!

Sayyora JO'RAYEVA

## HAMISHA KAMARBASTAMIZ

guvoh bo'ldik.

Qo'li gul ustalar tomonidan ta'mirlanib, yangi o'quv yiliga taxt qilib qo'yilgan ushbu maktabda 1200 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi. Ularga mehribon va jonkuyar, talabchan va izlanuvchan 60 nafar o'qituvchilar saboq beradilar.

Ana shunday ustozlardan biri ingliz tili muallimasi Maxzuna Hamdamova Fond forum tomonidan tashkillashtirilgan pedagogik grantlar dasturida ishtirok etdi. Uning «Darslarda mini proyektlardan foydalanish» deb



*Maktab rahbari Xosiyat Muqimova o'quvchilar bilan ertaga bo'ladigan bilimlar kuniga hozirlik ko'rishmoqda.*

Yurtimizning qay go'shasiga bormaylik, farzandlarimiz uchun ezgu ishlar amalga oshirilayotganiga guvoh bo'lamiz. Yangi zamonaviy o'quv maskanlari qad rostlamoqda, ta'lim muassasalari ta'mirdan chiqib, bolajonlarni yana-da quvontirmoqda. Mustaqilligimizning 17 yilligi arafasida maktablarga zamon talablariga javob beradigan yangi mebellar, sport anjomlari taqdim

nomlangan loyihasi g'olib deb topildi.

Kimyo, fizika, biologiya, chizmachilik, rasm fan xonalari yangi zamonaviy mebellar bilan ta'minlandi.



«Kelajak ovozi» respublika iqtidorli yoshlar tanlovining tuman bosqichida 8-«V» sinf o'quvchisi Dilfuza Hamroyeva tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni egallagan bo'lsa, 9-sinf bitiruvchisi

Javlon Parmonov badiiy ijod yo'nalishi bo'yicha tuman g'olibi bo'ldi.

Shuningdek, maktabda ingliz, matematika fanlariga chuqurlashtirilgan sinflar tashkil etilgan.

– Bir necha yil avval tumanimizdagi 28 ta maktablar orasida bizning o'quv maskanimiz 17-o'rinda turar edi. Bugun esa 7-o'rindamiz. Hali oldinda qiladigan ishlarimiz juda ko'p. Tuman, shahar va respublikada eng oldingi saflarda bo'lishga intilyapmiz. Buning uchun maktabimiz o'qituvchilari ham birdek harakat qilishyapti, – deydi maktab rahbari Xosiyat opa Muqimova. – Ushbu o'quv yilida bolajonlarimizni keng, yorug' va ozoda maktabda kutib olamiz. Maskanimizni yana-da ko'rkam qilib ta'mirdan chiqarib bergan davlatimiz omon bo'lsin. Istiqlolimizning istiqboli uchun biz ustozlar hamisha kamarbastamiz.

F.ODILOVA

*Sport zali bolalarni kutmoqda.*





## TOLEI KULGAN AVLOD

Mustaqillik bizning eng ulug' va eng aziz bayramimiz. Shunday shukuhli damlarda kelajagi porloq yurtning aziz bolalariga, fidoyi farzandlariga samimiy bayram tilaklarini aytgim keldi:

– Ey, ozod zamonning ozod bolasi, Sen otobobolaring orzu qilib ketgan ozod Vatanda yashayotganing bilan hamisha faxrlan!

Ey, hur davrning bilimga chanqoq bolasi, Sen mudom ilm koni bo'lgan maktab-u litseylarda o'qishdan aslo erinma. O'ning har doim g'oliblar safida bo'lishiga intil!

Ey, kelajagi buyuk yurtning tolei kulgan farzandi, Sen buyuk mustaqillik berayotgan barcha imkoniyatlardan keng foydalanib, jahon sahnalarida o'zligingni namoyon qil!

Ey, mard va tanti o'zbekning komillik sari intilayotgan bolasi, Sen, avvalo odob-axloqda, milliy qadriyatlarimizni qadrlashda, milliy an'analarni yuksaltirishda mudom o'rnak bo'!

Ey, Ozod Vatanning baxti kulgan bolasi, Sen mustaqillik va ozodligimiz bayrog'ini mustahkam tut. Bu muqaddas bayrog'imiz mangu hilpirab tursin!

Ashurali JO'RAYEV,

«Gulxan» jurnali Bosh muharriri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist



## BIRINCHI QADAM

– Dilbar, qizalog'im, turaqol. Endi vaqtl turishni o'rganishing kerak. Maktabga chiqadigan bolalar darsga kech qolsalar, sinfdoshlari va ustozlari oldida uyalib qoladilar.

– Oyijon, ustoz o'zi kim?

– Ustoz – bu ulug' zot. Senga yozishni, chizishni, o'qishni, qolaversa, odob-axloqni o'rgatadi. Ustozni yana boshqacha qilib muallim, muallima deb ham ataydilar. Yodingda tut, maktabda senga ta'lim bergan barcha ustozlaringni hamda sinfdoshlaringni hurmat qilishing kerak.

– Sinfdoshlar qanaqa bo'lishadi?

– Sinfdoshlar – sening eng yaqin do'stlaring hisoblanadi. Ular bilan inoq bo'lib, qo'lingdan kelgan yordamni ayamagin.

– Men maktabda ko'p do'stlarim bo'lishini istayman. Oyijon, yana men sinfda hammaga mehribon va a'lochi o'quvchi bo'lishni xohlayman...

Dilbarga qarab o'ylanib qoldim. Yillar bamisoli shamol kabi o'taveribdi. Olti yil oldin uning atak-chechak qilib tashlagan birinchi qadami oilamiz a'zolari uchun unutilmas kunga aylangandi. Birinchi sut tishi yorib chiqqanda yosh boladek quvonganim hanuz yodimda. Bu yil esa Dilbar 1-sinfga chiqyapti. Biz unga oq yo'l tilab, «Maktabga qo'ygan birinchi qadaming qutlug' bo'lsin!», deb qolamiz.

Nazokat MANSUROVA,

Toshkent tumanidagi 9-maktab o'qituvchisi

## DIYORA

Diyora Namangan shahridagi 2-maktabning 9-sinf o'quvchisi. Undagi o'qishga, ijodga, sportga, san'atga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Boisi, uning bilim olishi uchun nafaqat ustozlari, balki bobosi Odiljon aka va buvisi Gulsara opa ham ko'mak berishadi.

– Bugun barcha ustoz va yaqinlarimdan xursandman, – deya gap boshladi Diyora. – Chunki ularning yordamlari bilan barcha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtiryapman. Sezyapmanki, hayotda yaxshi o'qishga intilgan inson xor bo'lmas ekan.

Darhaqiqat, intilganga tole yor deydilar. Diyora ham «Kelajak ovozi» tanlovida raqs yo'nalishi bo'yicha o'z iqtidori va iste'dodini namoyish etmoqchi. Bu haqda shunday deydi:

– Ushbu tanlov haqida eshitishim bilanoq menda raqs yo'nalishi bo'yicha qatnashish ishtiyoqi paydo bo'ldi. So'ng, «Humo» raqsini ijro etishni dilimga tugdim. Sahnada haqiqiy Humo qushini tasvirlash uchun raqs ko'yilgimni o'zim yaratdim. Bezaklariga alohida e'tibor qaratdim. Tikkan ko'yilgim esa yaqinlarim va ustozlarimga juda manzur bo'ldi. O'yilaymanki, tanlovda ijro etadigan raqsim hech kimni befarq qoldirmaydi.


Yaxshi niyat yarim mol, deydi xalqimiz.

Yaxshi niyatlar bilan hayotda olg'a yashashga intilayotgan Diyora omadlar tilab qolamiz.



Kamola NOSIROVA, Namangan viloyati

## BAYRAMGA BAG'ISHLANGAN YANA BIR TADBIR



O'quvchilarning yozgi ta'til kunlarida shahrimizdagi so'lim istirohat bog'lari bolajonlar bilan gavjum bo'lishiga ko'nikib qolganmiz. Kuni kecha Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog'i har doimgidan ham gavjumroq bo'ldi. Sababi, bu maskanda Toshkent shahar o'quvchi-yoshlar texnik ijodiyoti Markazi tomonidan tashkil etilgan shahar spartakiadasi bo'lib

o'tdi. Shahar o'quvchi-yoshlar texnik ijodiyoti markazi, poytaxtimizning 6 ta tumanidagi o'quvchi-yoshlar ijodiyoti markazlari, Respublika o'quvchilar saroyi hamda 22-«Mehribonlik uyi»dan, jami 100 dan ziyod ishtirokchi qatnashgan mazkur tanlov juda qiziqarli va maroqli o'tdi.

«Yoshlar yili» hamda Mustaqilligimizning 17 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tanlov ishtirokchilari «Yosh fazogirlar», «Samolyotsozlik», «Avtomodel», «Kemasozlik» yo'nalishlari bo'yicha o'zaro bellashdilar. Saylgohga kelgan o'g'il-qizlar tadbir ishtirokchilarining texnik yo'nalishdagi ko'rgazmalarini katta qiziqish, havas bilan tomosha qilishdi.

Musobaqaning, ayniqsa, g'oliblarni aniqlash va taqdirlash marosimi hayajonli kechdi. «Yosh fazogirlar» musobaqasining S-6-A S-3-B2 S-7-5-1 yo'nalishlari bo'yicha SHO'YOTIM a'zosi M.Mirsoliyov, Yunusobod tumanidan S.Shamyonov, Sergeli tumanidan A.Ahmedovlar 1-o'rinni qo'lga kiritishdi. Musobaqaning boshqa yo'nalishlari bo'yicha ham g'oliblar aniqlanib, qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Shu kuni talaygina o'smirlar musobaqada ishtirok etgan va g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilarga havas qilib, yosh texniklar markazlariga a'zo bo'lish niyatini bildirdilar. Zero, musobaqa tashkilotchilarining ezgu maqsadi ham shu edi-da!

FERUZA yozib oldi

## KO'CHALARDA ADASHIB QOLAMIZ...

shahar aholisi va mehmonlarini zeriktirmay manziliga yetkazadi. Avtobusda ketarkanman, bir otaxonning so'zlari qulog'imga chalindi:

– O'g'lim, mustaqillik maydoniga yetganimizda aytgin, tushib qolaman, – dedilar chiptachiga va mening hayron bo'layotganimni ko'rib, sababini tushuntira ketdilar, – bu otaxon shu shaharda mendan ham ko'p yashab, hanuzgacha adashib yurarkanlar, deb o'yilayapsanmi? Shahrimiz qiyofasi juda tez o'zgarib ketyapti-da, qizim. Bir oy avval ko'chaga chiqqaningda qurilayotgan bino bugun bitib bo'lgan. Shuning uchun menga o'xshagan keksalar ko'chalarda darrov adashib qolamiz.


Shu vaqt avtobus svetofor oldida sal ushlanib qoldi. Otaxon mashinalarga boqib, so'zlarida davom etdilar:

– Ilgarilari moshin qurg'ur 2-3 dona bo'lardi, shunda ham boylarda. Qolganlar jaziramada ham, ayozda ham

ot-arava, eshak-arava qilib yurishardi. Bugun xalqning yarmidan ko'pi moshin haydaydi. Bularning ko'pligidan noqulaylik bo'lmasin, deb ko'priklar qurdi hukumat, baraka topgur. Bizning davrimizda yo'llar qishda loy, yozda chang, toshloq, o'nqir-cho'nqir bo'lardi. Manzilingga yetguningcha tavbanga tayanarding. Hozir mustaqil bo'ldig-u, bag'rimizga shamol tegdi. Tilvizo'rda keksalar Vatan, mustaqillik deyishsa, yoshlarga balandparvoz gapdek erish tuyuladi. Bizni yoshligimizning aqalli bir yilini yashaganlarida ham hozir mustaqil olayotgan har bir nafaslariga shukrona aytardilar. Bunday hayotning qadriga yet, qizim.

Otaxon manzillariga yetgach, avtobusdagilarni kuzatdim: ularning nigohida shahrimizga nisbatan faxr-iftixorni sezdim...

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA



Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ta'til vaqtida uyda o'tirgan mendek yoshlar uchun shahrimiz ko'chalarini durustroq kezishga bahona bo'ldi. Ko'chalardagi o'zgarishlarni ko'rib, dilim yayrab ketdi: zamonaviy binolar soni ortgan, monitorli transport vositalari esa



Yarim kechada qo'ng'iroq dod soldi. Ko'zim endi ilingan ekan, erinchoqlik bilan go'shakni ko'tardim. Katta amaldorlardan birining ovozi eshitildi. Nechun yo'qlab qoldi? Ostonasiga borsang, go'dak uhicha shamoliga ham yetolmaysan bundaylar-ning. U ahvolimni, oilamni so'rab, so'ng hazil-huzul qildi va gap oxirida ertaga bo'ladigan bolalar tanlovida tog'asining o'g'ilchasi Alibek degan bolani qo'llab yuborishimni so'radi. Ensam qotdi. Tanish-bilishchilikni o'lguday yomon ko'raman. Nafasim bo'g'ilib, «Harakat qilaman, ko'ramiz», deb mujmal javob qildim-da, xayrlashib, go'shakni tap etib joyiga qo'ydim. Xotin ham hadik, ham ilinj bilan yuzimga tikildi. Nega bunaqa, deysizmi? O'n to'rt yoshli qizim ham ertaga tanlovda qatnashyapti. Ona-da, joni halak. «Yordam bering, dadasi!» deyishga tili bormaydi. Vajohatimdan, jerkib tashlashimdan qo'rqadi. Shu gapni aytmasin, shu gapni eshitmay, deya men ham teskari o'girilib, ko'zimni yumdim. Qizim kuchli bo'lsa, o'z bilimi bilan g'olib bo'lgani ma'qul. Birovlardan ta'na eshitgandan ko'ra, tinch yurganim yaxshiroq.

Ertasi havo sovuq bo'ldi. Katta zalda o'tiribmiz. Egnimda palto. Sovuqdan dir-dir titrayman. Bolalar birin-ketin kirib chiqishyapti. Bir-biridan bilimdon bolalar. Qizim ichkari kirganda, men sahna ortiga o'tib ketdim. Qaytib kelganimda, u savollarga javob berib chiqib ketgan edi. So'ramasam ham sherigim Botir Narvon uni rosa maqtadi. Xuddi katta shoiralarday she'r yozadi, undan yaxshi shoira chiqadi, deb qo'shib ham qo'ydi. «Bilimiga yarasha baho qo'yaveringlar, zo'rakilikka toqatim yo'q», deya qovog'imni uydim.

Ikkita boladan so'ng Alibek ichkari kirdi. Kimni ko'rdim deng?! Katta kallasi, yaltiroq tugmacha ko'zlari, kichkinagina iyagi, sodda, ammo o'tkir nigohi xotiramda muhrlanib qolgan bolani ko'rdim. Men uni ikki yil avval qish paytida, Moskvada, metroda, Kantemir bekatida uchratgan edim. U ko'zoynak taqqan, yelkasida katta qora sumka, qo'lidagi kitobga muk tushganicha o'tirardi. Kitobxon bola ekan, dedim. Qaniydi, bizning o'zbek bolalari ham shunaqa bo'lsaydi, deya havas ham qildim. Birozdan so'ng, qoramtir hassa tutgan ko'zoynakli chol uning tepasiga kelib to'xtadi. Cholning lablari qurshagan, entikib-entikib nafas olardi. Unga rahmim keldi. Bolani o'rnidan turg'azib, uni o'rindiqqa o'tqazmoqchi bo'ldim, ammo qandaydir kuch meni tutib qoldi va men nafrat bilan bolaga qaradim. Kitob o'qigan hamma bola ham fahm-farosatli bo'lmaydi, o'zbek bolasi hoziroq joy bergan bo'lardi, deb o'yladim.

Odam tirband. Shovqin-suron. Chol bechora inqillaganicha burnini artdi. Unga yana-da rahmim keldi. Endi bolaning yelkasidan turtib, o'rnidan qo'zg'atmoqchi edimki, u qariyani ko'rib, irg'iganicha o'rnidan turdi va:

– Kechirasiz, ko'rmay qolibman, marhamat, o'tiring! – deya xuddi kattalarday mulozamat qildi. Men xursand bo'lib yengil tortdi:

– Aqlli bola ekansan, balli! – dedim. U ko'zoynagini olib menga tikildi. Uning ko'z-qoshi

QANDINGNI UR,  
ALIBEK!

### To'lqin HAYIT

qop-qora, istarasi issiqqina edi.

– Qayerliksan? – so'radim undan ruschalab. U esa:

– Toshkentdanman, amaki! – deya o'zbekcha javob qildi meni lol qoldirib. Ikkimiz biroz suhbatlashdik. Otasi elchixonada xizmat qilar, o'zi esa ikki yildan buyon shahardagi maxsus maktabda o'qiyotgan ekan.

– Baholaring beshmi? – deb so'ragan edim, u g'oyat kamtarlik bilan:

– Harakat qilyapman, amaki! – dedi. Soddaligi, samimiyligi, fikri borligi menga yoqdi.

Chol ham u bilan qiziqdi va:

– O'zbeklarni madaniyatli xalq deb eshitganman, rahmat, bolam! – dedi chehrasi ochilib.

Bolaning birgina harakati bilan o'z xalqim haqida maqtovli gap eshitganimdan mamnun bo'ldim. Ehtimol, o'shanda tillo topganimda ham bunchalik xursand bo'lmasligim mumkin edi.

Taqdirni qarangki, bugun shu bola mening ko'z o'ngimda turibdi. Mamnunlik bilan uni yonimga chaqirdim. «Baribir bilimiga qarab baho qo'yaman», degan gap ko'nglimdan o'tdi. Qaysarman-da, qaysarman.

Sherigim Botir Narvon uni meni odamim deb tushundi shekilli:

– Xo'sh, javobni o'zingiz olaverasizmi?! – dedi yupqa lablarini cho'chchaytirib.

– O'zlaridan bo'la qolsin! – dedim men to'g'rimda yomon o'yg'a bormasin deya. Bu yerdan chiqqan zahoti «Bu kishim ham aynibdilar», deb yetti iqlimga jar solishi turgan gap.

U Alibekni savolga tuta ketdi. Bola uning og'zidan savol chiqar-chiqmas, xuddi magnitofonda yozilgandek, silliq, ravon ohangda tez javob qaytarar, go'yoki bilmagan narsasi yo'qdek edi. Botir Narvonning chekka tomirlari ko'karib chiqdi.

– «Qutadg'u bilik»ni o'qiganmisan? – savolga tutdi uni.

Alibekning ko'zlari pirpiradi:

– O'qiganman!

Botir Narvonning ko'zlari charaqlab, chekka tomirlari qil tortdi. Bildimki, uning nozik joyidan tutmoqchi. Shunday qilsa, bolaning bahosi pasayib, o'zining odami birinchi o'rinda qoladi. Bolaga achinib qaradim. Bilimi zo'r ekan-u, lekin qassobning qo'liga tushgani yomon bo'ldi.

Botir Narvon keskin va kalondimog' ohangda: – Qani, yoddan o'qing-chi, uka! – dedi yoqimsiz tirjayib.

Etim muzlab ketdi. Eh, ukam-a!

Alibek qaddini g'oz ko'tarib, baland ohangda «Qutadg'u bilik» asarini yod o'qiy ketdi. Uning ovozi jarangdor va shirali edi. Bizdan narida, boshqa stollarda o'tirgan hay'at a'zolari, o'quvchilar – barchaning diqqati shu tomonga qadaldi. Tashqaridagi ovozlari tinib, bir gala o'quvchilar deraza romlariga osilishdi.

Botir Narvonga zimdan ko'z tashladim. Uning nosqovoq burni qizarib, chekka tomirlari yana bo'rtib chiqqan edi. Bolaga, beozor bandaga tish qayragan,

ichiqoralik qilgan kimsaning holi shu bo'ladi. Unga achinib qaradim. Ko'p kitob o'qigan, lekin uqmagan nodon.

Alibek asarning yarmini o'qib bo'ldi.

Men beixtiyor qo'l ko'tardim.

– Hurmatli hay'at a'zolari, – deya murojaat qildim baland ovozda. – Qani, yana kimda savol bor?

Botir Narvon menga norozi qaradi: ola ko'zlari kattalashib, nafis lablari pirpiradi.

– Nechta tilni bilasan? – so'radi u boladan.

Alibek menga qaradi. Ayt, degandek imo qildim.

– Olti tilni bilaman! – javob qildi.

Botir Narvon:

– Ingliz tilini bilasanmi? – deb so'radi.

Alibek «bilaman» degandek boshi bilan imo qilgan edi:

– Ingliz tilida savol beraman, javob bersang, gap yo'q! – dedi Botir Narvon. Men uni maydonda yelkasi yerga tegib, kurashga to'yagan noshud polvonga o'xshatdim. Namuncha unga tish qayrab qoldi?!

Botir Narvon ingliz tilida «Hamsa»ni, «O'tkan kunlar»ni nima deyishini so'radi. Alibek shu zahoti javob qildi.

Men sovuqni allaqachon unutgan edim, yelkamdagi palto yerda yotardi. Ko'z oldimda Moskva metrosi, o'sha chol namoyon bo'ldi-yu, shu zahoti:

– Madaniyatli xalqning asl bolasi ana shunaqa dono bo'ladi! – deb yubordim.

Botir Narvonning ko'zlari pirpirab, menga g'alati qaradi. Ehtimol, hali-hamon bolani mening odamim deb o'ylab o'tirgandir?! O'ylasa o'ylar. Men uning kabi ichiqoralik qilganim yo'q. Qandingni ur, Alibek! Botir Narvon burnini tishlasin!

Bir haftadan so'ng tanlov natijasi e'lon qilinib, Alibek bilan qizim g'olib deb topildi. Amaldor qo'ng'iroq qilib, rahmat, dedi. Xotinni aytmayisizmi, og'zi qulog'ida. Qo'shnilarga: «Erimning qo'li uzunligini endi bildim», degan emish...





Toshkentning Beshyog'ochdagi Olmazor ko'chasi, Arpapoya mahallasidagi xonadonlardan birida chaqaloq dunyoga keldi. Uning ismini Sherzod deb qo'yishdi.

Oradan kunlar o'tib chaqaloqni emlatish uchun onasi shifoxonaga olib bordi. Shifokor nazoratidan o'tkazib tramwayda kelayotgan mahalda bir bekatdan nuroniy otaxon chiqdi. Otaxonga lip etib bola ko'targan ayol joy berdi. Otaxon ayol va bolani duo qildi. Bir-ikki bekat o'tgach, tramway to'satdan izidan chiqib ketdi... Onaning qo'lidagi chaqalog'i esa tramway derazasidan otilib yerga tushdi. Ustiga-ustak tramway ham chaqaloq tushgan yerga, ya'ni bolaning ustiga ag'anadi... Yordamchi kuchlar ko'rishsinki, hammayog'i qonga belangan chaqaloq chinqirib yig'lab yotardi...

Bu Allohning mo'jizasi? Axir necha tonnalik temir uning ustiga tushadi-yu, tirik qolishi mumkinmi? Yaratganning o'zi asrasa, hech gap emas ekan-da.

### Ma'lumot uchun:

Sherzod G'ulomov Toshkentdagi 90-maktabni tugatgan. 40 yil O'zbekiston teleradiokompaniyasida faoliyat yuritgan. Ayni paytda O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi rahbari.



Nogahon onasining qo'lidan otilgan chaqaloq kimdir qazib qo'ygan chuqurlikka tushgan edi. Yo'rgakdagi qonni ko'rgan onaning faryodidan odamlar karaxt. Ammo chaqaloqqa hech bir ziyon yetmagan, ustidagi qonlar esa atrofdan sachraganligi ma'lum bo'ldi.

Baxtli tasodif tufayli omon qolgan bu inson O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi rahbari Sherzod G'ulomov bo'ladi. Bayram arafasida ustozni suhbatga chorladik:

– Uyimizda adabiyot ixlosmandlari, mashhur kishilar juda ko'p to'planishardi. Ularning ibratli suhbatlariga ko'p quvoh bo'lganman, – deydi Sherzod G'ulomov. – Otam yozuvchi Hamid G'ulomning qalamkash do'stlari, ustozlari-yu shogirdlarining asarlari bilan bolaligimdayoq tanishganman. Shaxsiy kutubxonamizda 200 boblik jahon


# BUYUK XALQNING BUGUNI

## MUSTAQILLIGIMIZ ABADIY BO'LSIN!

Bugun yurtimizda zo'r shodiyona! Mustaqilligimizning 17 yilligini keng tantana qilyapmiz. Bayram shukuhi Qoraqalpog'iston Respublikasi bolalari va o'smirlarining sevimli nashri bo'lgan «Jetkinshek» gazetasida o'z aksini topmoqda. «Istiqlol g'unchalari», «Mustaqillik tengdoshi», «Menga so'z bering!» kabi ruknlar ostida muntazam tarzda maqolalar, xabar va lavhalar berib borilyapti. «G'uncha gul ochar» ruknida esa yosh qalamkashlarning Vatan haqidagi she'rlari, hikoyalari e'lon qilinmoqda.



Qoraqalpog'istonlik bolalar ham «Tong yulduzi» gazetasini sevib o'qishadi. Tengdoshlari hayoti va ijodidan bahramand bo'lishadi. «Jetkinshek»ning ijodiy jamoasi hamda ko'p sonli o'quvchilari nomidan butun O'zbekiston bolalarini, jumladan, «Tong yulduzi» gazetasi ijodiy jamoasi va barcha o'quvchilarini Mustaqilligimizning 17 yillik bayrami bilan samimiy muborakbod etamiz!



O'zbek va qoraqalpog' bolalari Vatanimiz ravnaqi yo'lida yelkadosh bo'lib yashayversinlar! Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

Gulnora NURLEPESOVA,  
«Jetkinshek» gazetasi Bosh muharriri

adabiyoti durdonalari, 5-10 boblik tanlangan asarlari, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor kabi buyuk yozuvchi va shoirlarning o'lmas asarlarini o'smirlik paytimda takror va takror o'qib chiqqanman.

Jurnalist bo'laman, degan niyat maktab partasidanoq paydo bo'lgan. Shu qiziqish meni ToshDU, hozirgi O'zMU-ga yetakladi.

Jurnalist chindan ham xalq tabibi hisoblanadi. U doimo so'z qudrati, to'g'ri tahlili, beminnat mehnati bilan obro' topadi. Xalq jurnalistni uning tezkorligi va shijoati, to'g'ri axboroti

uchun ham qadrlaydi. So'zning qadrini, haqqoniyligini sezganimda hali talaba edim. Ilk marotaba tayyorlagan ko'rsatuvim hamon esimda. O'shanda odamlarga o'z vaqtida haqqoniy so'zni topib aytdik. 1966-yili zilzila oqibatida «Toshkent butunlay vayronaga aylanibdi», degan mish-mish tarqalgandi. Bu mish-mishlarga bizning ko'rsatuvimiz chek qo'ydi.

Ko'p yillik jurnalistlik faoliyatimda turli ko'rsatuvlar, maqola va lavhalar tayyorladim. Bugun esa o'zim O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi rahbariman.

Uyushmada ko'plab tanlovlar, tadbirlar uyushtiryapmiz. Maqsadimiz jurnalistlar orqali xalqning ko'ngliga kirib borish.

Jurnalistlar o'rtasida o'tkaziladigan har bir tadbirda

bolalar va onalar salomatligiga doir alohida mavzular o'rin oladi. «Oilaviy ta'lim-tarbiya dasturi doirasida matbuot, televideniye, radio sohasidagi hududiy mukofot» tanlovi, unni boyitish uchun milliy dasturi asosida «Temirga boy unning noni – salomatlik garovi» kabi tadbirlarimiz yildan-yilga o'z nufuzini oshirib bormoqda.

Istiqlol yoshlari chin ma'noda baxtlidir. Ularning o'qish, o'rganish, izlanishlari uchun yurtimizda yetarli sharoit bor. Birgina «Kelajak ovozi» tanlovi qisqa fursat ichida qanchadan-qancha iste'dodlarni kashf etdi. Ayniqsa, yurtboshimiz tomonidan e'lon qilingan «Yoshlar yili» ularga qo'shqanot bo'ldi...

Bugun Mustaqilligimizning 17 yilligi arafasida 17 yoshli o'g'il-qizlarim ko'z oldimda namoyon bo'ladi. Ular o'z fikri, o'z qarashlariga ega bo'lgan izlanuvchan, intiluvchan yoshlardir. Fan sohasida deysizmi, sportdami, dunyo kezmoqdalar. O'zbekiston nomini ulug'lamoqdalar. Yaqindagina O'zbekistonda o'tkazilgan Xalqaro 42-Mendeleyev Olimpiadasi, Madrid shahridagi Xalqaro 49-matematika Olimpiadasida yurtimiz farzandlari g'olib bo'lishdi. Kuni kecha esa Shveysariyaning Sent-Gelen shahrida o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan shaxmat bo'yicha jahon chempionatining bellashuvida Sirojiddin Zayniddinov ikkinchi bor jahon chempioni degan yuksak nomga musharraf bo'ldi. Bu kabi ro'yaxtlarning cheki yo'q.

Zero, «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat, deb ta'kidlamoq uchun barcha asoslar bor. Respublikada hamma narsa: tabiiy boyliklar, unumdor yer, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, insoniy va ma'naviy salohiyat mavjud. Eng muhimi – BU DIYORDA MEHNATSEVAR VA ISTE'DODLI XALQ YASHAYDI», yanglig' yurtboshimizning purma'no so'zlari bejizga aytilmagan. Ha, buyuk mamlakatning buguni dunyoga ko'z-ko'z aylasa arziydi.

Feruza SOYIBJON qizi  
suhbatlashdi






Respublikamiz hududida 9 ta qo'riqxonaga bo'lib, ular tog' hududidan joy olgan. Shunday qo'riqxonalaridan biri «Kitob» qo'riqxonasi.

«Kitob» qo'riqxonasi – Turkistondagi yagona geologik qo'riqxonaga bo'lib, u boshqa qo'riqxonalaridan ajralib turadi. U o'zining borliqdagi tabiati, o'simlik dunyosi, hayvonot olami va iqlimi bilan farq qiladi. Qo'riqxonaga 1979-yilda ochilgan. U Zarafshon tog'ining yonbag'rida, Hojiqo'rg'on so'ng'ining chap qirg'og'ida joylashgan. Maydoni 5.378 gektarga teng. Maydonining kattaligi bo'yicha Hisor, Chotqol, Nurota hamda Zomin qo'riqxonalaridan so'ng beshinchi o'rinda turadi.

Iqlimi quruq subtropikka o'xshaydi. Yanvar oyida o'rtacha harorat – 5, iyul oyida esa o'rtacha harorat +18 ni tashkil etadi. Shuningdek, yog'in miqdori 600 mm. atrofidadir.

Ushbu qo'riqxonada barcha qo'riqxonalarda bo'lgani kabi hayvonlar uchraydi. 300-400 mln. yillar ilgari yashagan hayvonlarning izlari Turkiston ko'zoynakli iloni, echkiemar, toshbaqa, burgut, kaklik kabi hayvonlarning turlari va tog' jinslari mavjud.

Ruslan IBODOV,  
Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti,  
Xalqaro aloqalar va iqtisod fakulteti,  
2-bosqich talabasi



Yaponiyaning shimolida o'tkazilgan «Kim oshdi» savdosida dunyoda eng ulkan tarvuz, deya tan olingan va u, ya'ni kattakon qora tarvuz – Delikates deb nom olgan hamda 6100 AQSH dollariga sotilgan.

\*\*\*

Dunyoga mashhur yozuvchi Artur Konan Doylning o'z dastxati bilan yozilgan kitobi – «Ledi Frensis Karfeksning yo'qolishi» nomli hikoyasi Londonda o'tkazilgan ko'rgazma – yarmarkada yarim million dollarga baholangan. Atiga 28 betdan iborat husnixat 1911-yilga tegishli bo'lib, uni muallif o'z qo'li bilan yozgan.

\*\*\*

Delfinlar faqat bir ko'zini yumib uxlaydi.

\*\*\*

Jahon okeanlarida suvlarda insoniyat shu vaqtgacha qazib olganidan ko'p

miqdorda oltin bor ekan.

\*\*\*


Tuyaqushning ko'zi miyasidan kattaroq ekan.

\*\*\*

Kapalaklar oyoqlari bilan oziqlanishadi.

\*\*\*

O'rdakning qag'illashi aksado bermaydi. Negaligini haligacha hech kim tushuntirib bera olmagan.



\*\*\*

Yumronqoziq esa 2 yil yashaydi, xolos.

\*\*\*

Kakku qush turli turlarda tuxum qo'yadi.

\*\*\*

Zuhra soat strelkasiga teskari aylanuvchi Quyosh tizimining yagona sayyorasidir.

\*\*\*




Fil o'rtacha 60 yil umr ko'radi.

## «O'ZBEKISTONIM» TOPSHIRIQLI AYLANMA SKANVORD

Hurmatli o'quvchilar! Skanvordni hal etgandan so'ng, shakl atrofidagi raqamlarni javoblar yozilgan xonalardagi mos harflar bilan almashtirib, muammonomani yeching. Bunda ulardan tabrik so'zlarimizni bilib olasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi



BOSH MUHARRIR:  
To'liqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manziliimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy,  
Obuna indeksi: 198,  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

Rassom:  
Feruza MATYOQUBOV

«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 21527  
Buyurtma N: J 5887

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi-Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:  
Fazliddin SHOYODGOROV  
Navbatchi:  
Sayyora JO'RAYEVA